

## O'ZBEKISTONDA ISLOM SIVILIZATSIYASI MARKAZINI TASHKIL ETISH VA BU BORADA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Meliyeva Parvina

**Yuridik fakulteti sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.18107536>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yurtimizda muqaddas dinimizni, ulamolarimizning boy merosini o'rganish, tarixiy obidalarini asrab avaylashga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish va qayta tiklash borasida amalga oshirilayotgan islohatlar va bunda har bir ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor berish, buyuk olimlarimiz qoldirgan ilmiy va diniy qo'lyozma va boshqa meroslarni jamlashga alohida e'tibor berilmoqda hamda yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar bu kabi barpo etilayotgan markazlarni ko'rib, bu diyorga cheksiz hurmat va ta'zim bilan ketishi kabi maqsadlar ko'zda tutilganini aytish muhimdir.

**Kalit so'zlar:** Islom sivilizatsiyasi, qo'lyozma, rekonstruksiya, Vazirlar Mahkamasi, renessans, ma'naviy infratuzilma, jahon tamadduni, xalqaro platforma, xalqaro tashkilotlar.

Davlatimiz rahbarining 2017-yil 23-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3080 son qarori ijrosini ta'minlash borasida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

-O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi O'zbekistondagi Islom Sivilizatsiyasi markazining ustavi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

-Markaz bir oy muddatda:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti bilan birgalikda xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda mazkur yo'nalishda faoliyat yuritayotgan xorijdagi markazlar tajribasini chuqur o'rganish asosida Markazning ilmiy-tarixiy konsepsiyasini ishlab chiqsin;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Fanlar akademiyasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti bilan birgalikda Markazga yuqori malakali mutaxassislarni jalb etish choralarini ko'rsin.

Xususan, mamlakatimizda muqaddas dinimizni, ulamolarimizning boy merosini o'rganish, tarixiy obidalarini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 21-aprel kuni Toshkent shahrining Olmazor tumaniga tashrifi chog'ida Imom Termiziy jome'masjidini rekonstruksiya qilish bo'yicha topshiriq bergan va Hazrati Imom majmuasida Islom madaniyati markazini tashkil etish taklifini bildirgan edi. Shu yilning 1-sentabr kuni Prezidentimiz Hazrati Imom (Hastimom) majmuasida bo'lib, mazkur markaz loyihasi bilan tanishdi.

Loyihaga ko'ra, ushbu markazda akademiya, kutubxona, arxiv va qo'lyozmalar fondi tashkil etilib, ularni bugungi O'zbekiston zaminidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar va ulamolar tomonidan asos solingan ilmiy va diniy maktablarga doir yurtimizda va chet ellarda saqlanayotgan qadimiy qo'lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, arxeologik topilmalar, osori-atiqalar, shu yo'nalishdagi zamonaviy ilmiy-tadqiqot ishlari, video va foto hujjatlar bilan boyitish, 300 o'rinli konferensiya zali barpo etish ko'zda tutilgan.

Prezidentimiz Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi jarayonlarini ko'rdi. Davlatimiz rahbari yurtimizdagi islom madaniyati bilan bog'liq bir necha ming yillik qadimiy o'tmish bir joyda-mana shu majmuada mujassam bo'lishini, markaz bilan tanishgan odam o'zbek xalqining dunyo tamadduniga qo'shgan buyuk hissasini anglashini ta'kidladi.

Davlatimiz rahbari 29-yanvar kuni Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazida olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko'rib o'tdi.

Markazning eng asosiy qismida Qur'oni karim zali o'rin oladi. Bu yerda musulmon dunyosining ma'naviy durdonasi-qadimiy Usmon Mushafi joylashtiriladi.

Shuningdek, Mushaf atrofiga jahonning eng mo'tabar Qur'on qo'lyozamalari, somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar, g'aznaviylar, saljuqiylar, temuriylar va boshqa tarixiy sulolalar davrida bitilgan Kalomulloh nusxalari, ularning eski o'zbek tilidagi tarjimalari ham qo'yiladi.

Majmuada "Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar", "Birinci renessans davri", "Ikkinchi renessans davri", "O'zbekiston XX asrda", "Yangi O'zbekiston-yangi Renaissance", kabi bo'limlar tashkil etiladi. Bu davrlar tarixi turli ashyolar, qo'lyozma manbalar, suratlar va multimedia vositalari orqali namoyish etilgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Mansur Maturidiy, Abu Muin Nasafiy, Qaffol Shoshiy, Abdulxoliq G'ijdivoniy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xo'ja Ahror Valiy kabi ulamolarning islom ma'rifatiga qo'shgan hissasi atroflicha yoritilgan.

Shu o'rinda markazda ulug' ajdodlar merosini chuqur tadqiq qilish, uni bugungi kunning o'tkir muammolariga javob bera oladigan hayotbaxsh kuchga aylantirish zarurligi ta'kidlanadi. Buning uchun O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Maturidiy nomidagi va boshqa xalqaro ilmiy-ma'rifiy tashkilotlar faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish, birgalikda zamonaviy tahdidlarga munosib ilmiy javoblar topish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish kerak.

Bu kabi xayrli ishlar, avvalo, xalqimiz va xalqaro jamoatchilik tomonidan keng qo'llab-quvvatlanmoqda. Shularni inobatga olib, davlatimiz rahbari Islom madaniyati markazi nomini Islom sivilizatsiyasi markazi deb o'zgartirish taklifini bildirdi.

Shuningdek, Markazning asosiy vazifalaridan yana biri-dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni samarali yo'lga qo'yish maqsadida YUNESKO, AYSESKO, IRSIKA, kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatish.

Xususan, BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterish yurtimizga tashrifi chog'ida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazida bo'lib, bu yerda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan yaqindan tanishdi. Davlatimizda madaniy merosni asrab-avaylash va targ'ib qilishga qaratilayotgan e'tiborga yuqori baho berdi.

-Afsuski, so'nggi yillarda dunyoda islomofobiyaning turli ko'rinishlari bilan to'qnash kelmoqdamiz, -degan edi Antoniu Gutterish.

-Albatta, bu bizni qattiq tashvishga solmoqda.

Ana shunday bir paytda davlat rahbaringiz boshchiligida katta ilmiy-ma'rifiy muassasaning barpo etilishi, Islomning mazmun-mohiyatini ifodalashga harakat qilinishi juda ulug' ishdur.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy-ma'rifiy va diniy-ma'naviy infratuzilmaning yangi innovatsion shaklini o'zida mujassam etgan xalqaro platforma bo'lib, uning asosiy vazifasi-buyuk ajdodlar merosini o'rganish va targ'ib qilish, "Yangi

O'zbekiston-Uchinchi Renessans poydevori" g'oyasini ommalashtirish hamda xalqimizning o'tgan davr va Yangi Renessans zamonidagi yutuqlarini chuqur tadqiq qilishdan iborat.

Islom sivilizatsiyasining asosiy xususiyatlaridan yana biri shundaki, jamiyat moddiy barqarorlikka erishish bir tomonda bo'lsa, ijtimoiy barqarorlik va hamkorlik, jamiyat a'zolarining ma'naviy ruhiy yetukligi ularning komillik sari intilishlari asosiy mezonlar bo'lib maydonga chiqadi.

Kelajakda bu majmua o'zimizning me'moriy tajribamiz, Yangi O'zbekistonning bunyodkorlik maktabi, ilmiy-ma'naviy salohiyatimiz ramzi sifatida tarixga kiradi va qanchadan qancha yosh avlodlar bunday merosni asrab-avaylashadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Islom sivilizatsiyasi markazi yurtimizning milliy ma'naviyat va ma'rifati ramzi hisoblanadi. Shu sababli uni har tomonlama mukammal milliy va xalqaro talablar doirasida barpo etishga mamlakatimiz ilmiy va madaniy jamoatchiligi bir tanu bir jon bo'lib harakat qilmoqdalar. Zero, markaz xalqimizning qariyb to'rt ming yillik tarixidan so'zlaydi. Muhtasham donishmandlik, ilm-ma'rifat uyi vazifasini o'taydigan bu markazga butun dunyo aholisi cheksiz hurmat va havas ila boqib, yurtimizning ilm-ma'rifat maskani ekanligini yana bir bora anglab yetadi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. A.B.O'rozov, Yolqin Shamsiddinov. O'zA. O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etiladi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov. Toshkent. sh. 2017-yil 2-avgust. 572-son.
3. Sardor Yusupov. Islom sivilizatsiyasining zamini-ilm-fan, madaniyat, ta'lim va tarbiyadir-prezident. 2025.
4. R.Jabborov. Islom sivilizatsiyasi markazi-Yangi O'zbekistonning ma'rifiy salohiyati ramzi. 2025.
5. S.K.Karimov. Islom sivilizatsiyasining ma'navi-ruhiy asosi.
6. Sh.Hayitov. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi-kelajakka yuzlangan maskan